

TOSHLOQDA NAVRO'Z SHUKUHI

Bugun tuman markaziy o'yingohida bo'lib o'tgan sayillarda sport o'yinlari, laparu aytishuvlar, ayniqsa, o'lmas qadriyatlarimizni namoyish etishga keng o'rinn berildi.

Keksalar to'kin dasturxon atrofida o'tirib, yurtimiz tinchligi, farzandlarimiz omonligi, dehqonchiligimiz barakasi uchun duoga qo'l ochdilar.

Bayram tantanasida Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev so'zga chiqib, tuman aholisini yurtimizga qutlug' qadamlar bilan kirib kelgan bahor, yasharish va yangilanish ayyomi — Navro'zi olam bilan chin qalbdan samimiy muborakbody etdi.

Shundan so'ng, bayram ishtirokchilari uchun konsert dasturi namoyish etildi. Ayniqsa, xalqimiz suygan san'atkorlari Ilxom Ibroximov, Otabek Muxammadzoxidlarning dil tortar kuy va qo'shiqlari hamda so'z ustasi G'ayrat Ahmedovning chiqishlari barchaga bayram kayfiyatini ulashdi.

2023-03-17 16:06:17